

JAMIYATIMIZDA ERTA TURMUSH QURISHNI OLDINI OLISHNING PSIXOLOGIK YECHIMLARI

Togonova Mehriniso O'rinboyevna

*Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumanidagi 16-son
umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada jamiyatimizda erta turmush qurish muammosining psixologik va ijtimoiy jihatlari tahlil qilinadi hamda uni oldini olishga qaratilgan samarali psixologik yechimlar yoritiladi. Shuningdek, yoshlar ongida mustaqil hayotga tayyorgarlik, kasbiy yo'naltirish va o'zini anglash ko'nikmalarini shakllantirish masalalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: erta turmush, psixologik tayyorgarlik, o'smirlilik davri, ijtimoiy muhit, motivatsiya, oila, ta'lim, profilaktika.

KIRISH

Erta turmush qurish — bu shaxsning yetarli darajada jismoniy, ruhiy va ijtimoiy jihatdan yetilmasdan turib nikoh qurishi yoki turmushga chiqishi hisoblanadi. Odatda bu holat voyaga yetmagan yoki hali mustaqil hayotga tayyor bo'lmagan yoshlar o'rtasida uchraydi.

Erta turmush qurishning asosiy belgisi — yoshlarning oilaviy hayot mas'uliyatini to'liq anglab yetmasdan muhim qaror qabul qilishidir. Bunday vaziyatda ular o'z hayotiy maqsadlari, ta'lim olish va kasb egallash imkoniyatlarini to'liq baholay olmaydi.

Ko'pincha erta turmush quyidagi omillar ta'sirida yuzaga keladi:

- oilaviy bosim yoki an'analar
- ijtimoiy muhit ta'siri
- psixologik yetuklikning yetishmasligi
- iqtisodiy omillar
- ta'limdan uzilish yoki qiziqishning pasayishi

Erta turmush qurish yoshlarning shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Jumladan, ta'lim olish imkoniyatining cheklanishi, ruhiy bosim, oilaviy kelishmovchiliklar va hayotiy qiyinchiliklar yuzaga kelishi ehtimoli ortadi.

Shu sababli yoshlarni to'g'ri yo'naltirish, ularda mustaqil fikrlash, kelajakni rejalashtirish va kasb tanlash ko'nikmalarini shakllantirish muhim hisoblanadi.

Erta turmush qurish bugungi kunda jamiyatimizda dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bu holat, ayniqsa, o'smirlilik va yoshlik davrida uchrab, shaxsning to'liq

shakllanib ulgurmasdan turib muhim hayotiy qaror qabul qilishiga olib keladi. Natijada esa yoshlar turli psixologik, ijtimoiy va iqtisodiy qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Psixologik nuqtai nazardan qaraganda, o‘smirlik davri inson hayotidagi eng murakkab bosqichlardan biridir. Bu davrda shaxsning dunyoqarashi, qadriyatlari va hayotiy maqsadlari shakllanadi. Agar shu davrda yoshlar to‘g‘ri yo‘naltirilmasa, ular noto‘g‘ri qarorlar qabul qilishi ehtimoli ortadi. Erta turmush ham shunday qarorlardan biri hisoblanadi.

Erta turmush qurishning asosiy sabablaridan biri – psixologik yetuklikning yetishmasligidir. Ko‘plab yoshlar oilaviy hayotning mohiyatini, mas‘uliyatini to‘liq anglab yetmaydi. Natijada ular turmush qurishdan keyin turli nizolar va tushunmovchiliklarga duch keladi. Bundan tashqari, oilaviy muhit ham muhim rol o‘ynaydi. Ba‘zi hollarda ota-onalar farzandlarini erta turmush qurishga undaydi yoki majbur qiladi. Bu esa yoshlarning o‘z xohishsiz turmush qurishiga olib keladi. Natijada esa ruhiy bosim, stress va oilaviy muammolar yuzaga keladi.

Erta turmushni oldini olishda psixologik yechimlar muhim ahamiyatga ega. Eng avvalo, yoshlar bilan profilaktik ishlar olib borish zarur. Maktab va kollejlarda, oliy ta‘lim muassasalarida o‘quvchilar va talabalar bilan suhbatlar, treninglar va ma‘rifiy tadbirlar o‘tkazilishi lozim.

Psixologik treninglar orqali yoshlarning hayotiy ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. Masalan, mustaqil qaror qabul qilish, muammolarni hal qilish, stressni boshqarish kabi ko‘nikmalar yoshlarni hayotga tayyorlaydi. Bu esa ularning shoshma-shosharlik bilan turmush qurishining oldini oladi. Yoshlarni kasbga yo‘naltirish ham muhim omillardan biridir. Agar yoshlar o‘z oldiga aniq maqsad qo‘ysa, ta‘lim olish va kasb egallashga intilsa, ular turmush qurishga shoshilmaydi. Shu sababli kasbiy yo‘naltirish ishlari psixologik profilaktikaning muhim qismi hisoblanadi.

Ota-onalar bilan ishlash ham muhim ahamiyatga ega. Psixologlar ota-onalarga farzandlarining yosh xususiyatlari, psixologik rivojlanish bosqichlari haqida tushuntirish ishlarini olib borishi kerak. Bu orqali ota-onalar farzandlariga nisbatan to‘g‘ri yondashuvni shakllantiradi.

Shuningdek, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali ham erta turmushning salbiy oqibatlari haqida targ‘ibot ishlari olib borish zarur. Bu yoshlar ongida to‘g‘ri qarashlarni shakllantirishga yordam beradi. Maktab amaliyotchi psixologining roli bu jarayonda alohida ahamiyatga ega. Psixolog o‘quvchilar bilan individual suhbatlar o‘tkazish, ularning muammolarini o‘rganish va kerakli maslahatlar berish orqali erta turmushning oldini olishga hissa qo‘shadi.

Oila nafaqat bir yurtning balki jamiyatning kichik bir bo‘g‘ini. Aytish joizki, bugungi kunda oila masalasi davlat siyosati darajasigacha ko‘tarilgan. Nega deganda, bashariyatning tirikligi, uzluksizligi oiladan. Axir oilaning eng birlamchi va bevosita vazifasi, ma‘naviyat tili bilan aytganda, muqaddas vazifasi insoniyatning

zanjirini sog'lom va iqtidorli avlodlar bilan ulab borishdan iborat. Bu davlat zimmasidagi sharaflı va mas'ulyatli vazifadir.

Asrlar davomida islom shariatining mut'assiblari hukmron bo'lgan o'tmishimizda qizlarni barvaqt uzatishga chaqiradi degan noto'g'ri tushunchalar bor edi. Bu asossiz gap. Islomda hali balog'atga yetmagan, turmushga tayyor bo'lmagan o'smir qizlarni uzatish yoki nikohlash lozim, degan gap yo'q. Hatto, balog'atga yetgan jismoniy tarafdin turmushga tayyor yigit, agar oilani boqa olmasa uning uylanishi shart emasligi aytiladi. Masalaga tibbiy jihatdan yondashadigan bo'lsak, hozir shifokorlar 16-17 yoshli qizlar turmushga tayyor emasligi, homiladorlik va tug'uruq holatida qiynalib qolayotganini aytib, ularni 19-20 yoshlarida turmushga berishini yigitlarga 20-22 yoshlarda uylanishini tavsiya qilishmoqda.

Ikki yosh rasmiy nikohdan o'tish uchun to'ydan bir oy oldin joylardagi fuqorolik holati dalolatnomalarini yozish FHDYO idoralariga ariza topshiradi. shunda ularga tibbiy ko'rikdan o'tish uchun yo'llanma beriladi. Tibbiy ko'rik varaqasi to'ldirilgan holdagina fuqorolarning rasmiy nikohi qayd etiladi. Kelin kuyovlarni to'ydan oldin majburiy ravishda tibbiy ko'rikdan o'tkazish talabi bejiz qo'yilmagan. Navnihol yigit yoki qiz yashirin tarzda kechayotgan biror dardga chalingan, uni o'zi ham sezmay yurgan bo'lishi ehtimoldan holi emas.

Kamqonlik yurak qon tomir, buyrak xastaliklarini davolamay turib, homilador bo'lish nogiron bolalar tug'ilishiga olib kelishi hayotda ko'p isbotlangan. Xastaliklarni oila qurishdan avval davolash oson. Davlatimiz yaratayotgan bu kabi sharoitlar sog'lom turmush tarzini shakillantirish orqali oila mustahkamligini ta'minlashga qaratilgan. Zero, oilada yigit va qiz o'z vazifa va mas'uliyatlarini ado etishlari, sog'lom zurriyotlarni dunyoga keltirishlari uchun avvalo o'zlari sog'lom bo'lishlari shart. Hozirga kelib, tibbiy ko'rikning ahamiyatini aksariyat ota onalar tushunib yetdilar. Ammo shunday bo'lsada, "Hali turmushga chiqmagan yosh qiz turli yo'nalishdagi shifokorlarga uchrab yurishning nima keragi bor?" deb tor mulohaza yuritadiganlar ham yo'q emas. Ana shunday fikrlash sababli tibbiy ko'rikning talab darajasida o'tkazilishiga e'tibor bermay, giyohvandlikka berilgan yoki nasliy kasalligi bo'lgan kuyovga uzatish oqibatida baxtsiz qolgan qizlar, pushaymon chekkan ota-onalar hayotda uchrab turibdi.

Shu o'rinda o'tmishga nazar solib, allomalarimizning bu boradagi fikrlari bilan tanishsak: Bayhaqiq bu borada "Zaruriy ko'nikmalarni egallamay, bilim olmay turib turmushga chiqqan qiz, ayol, rafıqa, ona, beka jamiyat a'zosi sifatidagi vazifalarni to'kis ado etishga qiynaladi." Degani fikrlarni aytgan

Erta turmush va uning fojealari haqida targ'ibot tashviqot ishlari olib borilishiga qaramasdan, biz yashayotgan ushbu jamiyatda qizlarini erda turmushga berib, so'ng afsuslanadigan ota onalar afsuski, yo'q emas. Qizlar o'qiyman men orzu maqasdarimni amalga oshiraman deb ammo ota onasini fikriga qarshi borolmay

umidi soʻngan orzulari armonga aylangan qizlar soni koʻpayib bormoqda. Farzandlarni erta uylantirish yoki uzatish odati natijasida, hali na maʼlumoti, na tayinli kasb-hunari boʻlgan yigit-qizlar oila qurishib, moddiy jihatdan toʻla ota-ona qaramogʻida boʻlishadi. Ayni paytda koʻpgina oilalarning iqtisodiy nochor ahvoli ham yosh oilalarning buzilishiga olib kelayotgan holat ekani aytiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, erta turmush qurishni oldini olish kompleks yondashuvni talab etadi. Psixologik yordam, taʼlim, kasbiy yoʻnaltirish va ota-onalar bilan hamkorlik orqali bu muammoni kamaytirish mumkin. Bu esa yoshlarning sogʻlom va baxtli hayot kechirishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Mirziyoyev SH.M “Erkin va farovon, demokratik Oʻzbekiston davlatini mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz” mavzusidagi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimga bagʻishlangan Oliy Majlis palatalarining qoʻshma majlisidagi nutqi. _T..”Oʻzbekiston , 2016-56 b.
2. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari toʻgʻrisidagi” Qonun hujjatlari
3. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni taʼminlash kafolatlari” toʻgʻrisida president farmoni
4. A.Qayumov. Qoʻqon adabiy muhiti, Toshkent, OʻzSSR FA nashriyoti, 1961-yil, 313-bet.
5. Ziyonet